

Date: 1st November-2025

JAHON MAMLAKATLARI TA'LIM TIZIMINING INTEGRATSIYALASHUVI

Fozilova Nasiba Irisbek qizi

Guliston Davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon mamlakatlarining ta'lim tizimlarini integratsiyalashuvi jarayoni, uning asosiy bosqichlari, yo'nalishlari va ta'sir omillari tahlil qilinadi. Maqolada global ta'lim makonining shakllanishi, xalqaro ta'lim standartlari, Bolonya jarayoni, UNESCO, OECD, va boshqa xalqaro tashkilotlarning roli yoritilgan. Shuningdek, turli mamlakatlar tajribasi asosida ta'lim tizimlarining o'zaro uyg'unlashuvi, kredit-modul tizimining kengayishi, akademik mobillik, raqamli texnologiyalar va onlayn ta'lim integratsiyasi jarayonlari tahlil qilinadi. O'zbekiston ta'lim tizimining xalqaro integratsiyaga qo'shilayotgan hozirgi holati ham yoritilib, istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlariga baho beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, integratsiya, Bolonya jarayoni, globalizatsiya, xalqaro hamkorlik, akademik mobillik, kredit-modul tizimi, UNESCO, OECD, innovatsion ta'lim, O'zbekiston ta'lim tizimi.

Kirish

XXI asrda globallashtirish jarayonlari insoniyat hayotining barcha sohalarini, jumladan, ta'lim tizimini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Bugungi kunda hech bir mamlakatning ta'lim tizimi yakkama-yakka tarzda rivojlana olmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi, xalqaro mehnat bozori talablarining o'zgarishi, bilim va kompetensiyalarning universallashtirish milliy ta'lim tizimlarini o'zaro integratsiyalashuvga undamoqda. Shuning uchun ham "ta'lim integratsiyasi", "xalqaro ta'lim makoni", "global ta'lim standarti" kabi tushunchalar hozirgi zamon ilmiy-pedagogik terminologiyasida markaziy o'rinni egallab bormoqda.

1.Jahon mamlakatlari ta'lim tizimining integratsiyalashuv mohiyati va rivojlanish bosqichlari

Integratsiya, mohiyatan, milliy ta'lim tizimlarining o'ziga xosligini saqlagan holda, ularni xalqaro standartlarga moslashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayon har bir mamlakatning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimlarining integratsiyasi g'oyasi yangi emas. Uning ildizlari XIX asrning oxiri va XX asr boshlariga borib taqaladi. Quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin:

1. XX asr boshlarida – xalqaro pedagogik kongresslar va ta'lim islohotlari tajribasining almashuvi boshlangan davr;
2. Ikkinchi jahon urushidan keyin – UNESCO tashkil etilishi bilan ta'limning xalqaro miqyosda muvofiqlashtirish jarayoni boshlangan;



Date: 1st November-2025

3. 1980–1990-yillar – axborot texnologiyalari, internet va xalqaro talabalar almashinuvi (Erasmus, Fulbright, Tempus) kengaygan davr;

4. XXI asr – Bolonya deklaratsiyasi, Yevropa ta’lim makonining shakllanishi, raqamli ta’lim global tarmog‘ining yaratilishi.

2. Bolonya jarayoni va uning ahamiyati

Ta’lim tizimlarining integratsiyasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadallashgan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda xalqaro tashkilotlar — UNESCO, OECD, Jahon banki, YUNISEF va Yevropa Ittifoqi — global ta’lim siyosatini shakllantirishda faol rol o‘ynadi. Ayniqsa, 1999-yilda imzolangan Bolonya deklaratsiyasi Yevropa oliy ta’lim tizimining yagona standartlarini belgilab berdi. Bu jarayon keyinchalik Osiyo, Afrika va Amerika mamlakatlariga ham ta’sir etdi. Bolonya jarayoni ta’lim integratsiyasining asosiy mexanizmlaridan biridir. Unga ko‘ra:

Uch bosqichli ta’lim tizimi joriy etildi;

Kredit-modul tizimi (ECTS) ishlab chiqildi;

Diplomlarning o‘zaro tan olinishi uchun sharoit yaratildi;

O‘qitish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosiy mezon sifatida belgilandi.

3. Integratsiya jarayonining afzalliklari va muammoli taraflari

Ta’lim tizimining integratsiyalashuvining ham o‘ziga yarasha bir qancha afzalliklari mavjud albatta. Ular quyidagilar:

- xalqaro mehnat bozoriga mos mutaxassislar tayyorlashga yordam beradi;
- ta’lim sifatini baholashning yagona mezonlarini yaratadi;
- madaniy va ilmiy almashinuvni kuchaytiradi;
- innovatsion texnologiyalarni tezroq joriy etish imkonini beradi.

Shunga qaramay, bu jarayonda ayrim muammolar ham mavjud:

- ❖ mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlik;
- ❖ ta’lim sifatini standartlashtirishdagi qiyinchiliklar;
- ❖ milliy qadriyatlar va til masalalarining saqlanishi;
- ❖ ta’limdagi “miya oqimi” muammosi (iste’dodli yoshlarning chet elda qolib ketishi).

4. O‘zbekistonda ta’lim tizimining jahon tajribalari

Bugungi kunda O‘zbekiston hududida 30 dan ortiq xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari faoliyat yuritmoqda. Bu ta’lim muassasalari orqali ilg‘or xorijiy dasturlar, o‘qitish uslublari va texnologiyalar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Natijada yoshlar xorijda o‘qimay turib ham xalqaro darajadagi ta’limga ega bo‘lish imkoniga ega bo‘lmoqdalar.

Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim sohasi Erasmus+, DAAD, JICA, KOICA kabi xalqaro dasturlar orqali xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirmoqda. Har yili yuzlab talabalar va o‘qituvchilar ushbu dasturlar orqali xorijda o‘qish, malaka oshirish va tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida xalqaro test tizimlari — IELTS, TOEFL, SAT kabi sertifikatlar keng joriy



Date: 1st November-2025

etilmoqda. Bu talabalarni xorijiy til va ilmiy salohiyat nuqtai nazaridan xalqaro me'yorlarga yaqinlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni. – PQ-5847-son, 8-oktabr 2019-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – 2020-yil, Toshkent.
3. Г.И. ХАСАНОВА "Таълим жараёнида дастурлаштирилган уқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари" Жиззах: 2020. 420 бет. 223 -2256
4. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: —Fan va texnologiyalarll nashriyoti, 2008.
5. М.Усмонова . Уқувчи шахсига йуналтирилган педагогик технологиялар Таълим технологиялари. 2016 йил. 4-сон.
6. Azizxo'jayeva N.«Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat». TDPU-2003.